



## TABIY MONOPOL KORXONALARNI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHLTLARI

**Umarova Irodaxon Nuraliyevna**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID: 0009-0005-09885-8614

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada tabiiy monopol korxonalarini boshqarishning nazariy xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, pozitiv tartibga solish, me'yoriy yondashuv, ijtimoiy manfaatlar va o'zlashtirish nazariyasiga asosan bozorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar, jumladan mahsulot narxlarining oshishi, kartel kelushuvlar, bozor talablarining buzilishi, bozorda yakka mahsulotni elallashi, bozor nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, bozor ishtirokchilari va faoliyat turlari bilan bog'liq muammolar nazariy jihatdan o'rganilgan hamda tabiiy monopol korxonalarini davlat tomonidan tartibga solish usullari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** monopoliya, tabiiy monopoliya, oligapoliya, raqobat muhiti, raqobat mexanizmi, "bozor nuqsonlari", narx belgilash nazariyasi, daromadlilik, narxlar o'sishining cheklangan miqdori, narxlarning nisbiy o'sishi, ijtimoiy siyosat, atrof - muhit muhofazasi, iqtisodiy xavfsizlik.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ

**Умарова Иродахон Нуралиевна**

Ташкентский архитектурно-  
строительный университет

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются теоретические особенности управления предприятиями естественных монополий. В частности, теория позитивного регулирования, нормативного подхода, социальных интересов и присвоения базируется на теоретических исследованиях возможных ситуаций на рынке, включая повышение цен на продукцию, картельные колебания, нарушения рыночного спроса, приподнятость отдельного товара на рынке, причины рыночных дефектов, проблемы с участниками рынка и видами деятельности, методы государственного регулирования предприятий естественных монополий.

**Ключевые слова:** монополия, естественная монополия, олигополия, конкурентная среда, механизм конкуренции, "дефекты рынка", теория ценообразования, рентабельность, ограниченный рост цен, относительный рост цен, социальная политика, охрана окружающей среды, экономическая безопасность.

## THEORETICAL ASPECTS OF THE MANAGEMENT OF NATURAL MONOPOLISTIC ENTERPRISES

*Umarova Irodaxon Nuraliyevna*

*Tashkent University of Architecture and Construction*

**Annotation.** *This scientific article covers the theoretical features of the management of natural monopoly enterprises. In particular, the theory of positive regulation, normative approach, social interests and appropriation is based on theoretical studies of possible situations in the market, including increased product prices, cartel fluctuations, market demand violations, the elation of a single product in the market, the causes of market defects, problems with market participants and types of activities, methods of state regulation of natural monopoly enterprises.*

**Key words:** *monopoly, natural monopoly, oligapolia, competitive environment, competition mechanism, "market defects", pricing theory, profitability, limited price growth, relative price growth, social policy, environmental protection, economic security.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda har qanday iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida monopoliya va tabiiy monopoliya sohalari mavjud va ular kichik yoki yirik ko'rinishda sohalarda faoliyat yuritadi. Ma'lum bir tovar yoki xizmatga talabning yuqori ekanligi hamda iqtisodiy va texnologik jihatdan raqobat muhitini yaratish imkoni bo'lmagan taqdirda tabiiy monopoliya holati vujudga keladi.

«Monopoliya – iqtisodiyotning ma'lum bir sohasida tanho hukmronlik qilish, bozorga egalik qilish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan faoliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarlarning o'rinbosari bo'lmaydi» (Энциклопедия, 2004). «Monopol tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (masalan, qo'shilib ketish, kelishib olish yoki kartel bitimlari) natijasida raqobat to'la-to'kis o'rinli bo'lgan va liberal an'analarni saqlab qolish uchun davlat aralashuvini oqlaydigan sharoitda vujudga keladi. Monopoliya shuningdek, tabiiy yoki sohada ancha taqchil tovarga nisbatan bo'lishi mumkin. Bunda, ishlab chiqarish birligining oqilona hajmi butun bozorni qondirish uchun qaratiladi» (Фридман, 1955).

«Monopoliya atamasining mazmunini ifodalashda ikkinchi yondashuv – bu monopoliyalarga bozordagi ishtirokchilar (sotuvchi yoki xaridorlar) sonining cheklanganligi tufayli vujudga kelgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi va narxiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini namoyon etuvchi bozor holati sifatida qarash orqali tavsiflanadi» (Ўрмонов, Расулов ва бошқ, 2019).

«Iqtisodiy nuqtai nazardan, monopoliyaga qarshi siyosat – bu davlatning monopoliyalar paydo bo'lishi, qo'shilish va birlashtirib olish harakatlar, kartellar tashkil etilishi, narx hokimligi, raqobatga qarshi qilinayotgan harakatlarni cheklash va tartibga solishga yo'naltirilgan siyosati» (Райзберг, Лозовский ва бошқ, 2010).

«Tabiiy monopoliyalar – bozorda muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishda raqobatli sharoitlarni yaratish texnologik xususiyatlarga ko'ra mumkin bo'lmaydigan yoki iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lmaydigan holat» (Энциклопедия, 2004).

«Tabiiy monopoliyalar vujudga kelishining har ikki holatida ham bitta narsa yotadi. U ham bo'lsa, texnologiyadir. Birinchi holatda texnologiyalarning xususiyatlari, tabiiy monopoliyalar vujudga kelishiga taklif tomonidan, ikkinchisida esa, talab tomonidan ta'sir ko'rsatadi. Texnologik innovatsiyalar o'z davrida tabiiy monopoliyalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan (masalan, XVIII asrda temir yo'llarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, XX asr boshida elektr, telefon, suv o'tkazish va isitish tarmoqlari vujudga kelishi va rivojlanishi kabilar). Shu bilan bir qatorda, aynan, texnologik rivojlanish bugungi kunga kelib, tabiiy monopoliyalar maqomining buzilishiga sabab bo'lmoqda (masalan, uyali aloqa xizmatining yer yuzi telefon liniyasi universal xizmatlariga muqobil sifatida rivojlanishi, issiqlik va elektr energiyasi ishlab

chiqarish va hokazo). Texnologiyalarning mazkur xususiyatini va kapitalistik bozorlarning rivojlanishidagi rolini mashhur Avstriya – Amerika iqtisodchisi Jozef Shumpeter aniqladi. U mazkur jarayonni «Salmoqli buzilish» (creative destruction) sifatida tavsifladi» (Joseph, 1943).

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Jozef Shumpeter va uning tarafdorlari kapitalistik bozorlarning rivojlanishida innovatsiya va texnologiyaning o'rni yuqori ekanligini asoslab berdilar.

«Tabiiy monopoliya» tushunchasi iqtisodiyotda dastlab klassik iqtisodiyot maktabining asoschilari tomonidan ilgari surilgan. Ularning ta'kidlashicha, tabiiy monopoliyalarning iqtisodiyotda paydo bo'lishi -taqchil mahsulotga bo'lgan talabning taklifga nisbati yuqori ekanligidan kelib chiqadi.

Har qanday sharoitda tabiiy monopoliyalar sohalarining bozorda paydo bo'lishi, ularning iqtisodiyot uchun yuqori samara keltirishiga qaramay, iqtisodchi olimlar tomonidan bundan holatlarga bozor muvozanatining buzilishi sifatida qarab kelingan.

Tabiiy monopoliyalarning bozorga kirib kelishi quyidagi ehtimolliklar bilan qiyoslanadi:

- axborotlar (ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatning tannarxi, sarflangan xarajatlar, belgilan narx, bozordagi talab miqdori) barcha ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun ma'qul keladi;

- korxonalar va tashkilotlar har doim o'z foydasini oshirish uchun intiladi;

- korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar uchun sarflangan xarajatlar miqdori qanchalik kam bo'lsa, daromad olish miqdori shunchalik yuqori bo'ladi. Lekin mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatga narx belgilash talab miqdoridan kelib chiqadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Tabiiy monopoliya subyektlari ham o'z manfaatlariga ega. Ular, asosan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sifatida faoliyat yuritadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z daromadlari hisobiga xarajatlarini qoplaydilar. Shu sababli ham bunday tabiiy monopoliya sub'ektlari tovar ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatishda muayyan foyda, daromad olishga intilishlari lozim. Aks holda korxonalar samarali faoliyat yurita olmaydi, doimiy ravishda, zarar ko'rib ishlash, qarzdorlik, to'lovga layoqatsizlik holatlari bankrotlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun tabiiy monopoliya sub'ekti foyda, daromad olishni o'zining pirovard maqsadi qilib qo'yishi tabiiy (Қонун, 2009).

Monopoliyaga qarshi boshqaruvning tamoyillari quyidagilar (Ўрмонов, 2019):

- teng imkoniyatlarni ta'minlash (ma'muriy to'siqlarsiz biznes yuritish, rivojlantirish zarurligi);

- ixtiyoriylik (bozorga kirish va chiqish, bitimlar tanlovi va ularni imzolashdagi talablar);

- me'yoriy hujjatlar bazasining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va ijrosini ta'minlash (hujjatlarning ko'rsatma va tushuntirishidagi talablarni ixtiyoriy qabul qilish va moneliksiz bajarish);

- me'yoriy-huquqiy ijodkorligida mavjud bazani tizimlashtirish, bozor munosabatlari tartibga solinishi barqarorligini ta'minlash.

Mamlakatda tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarish va tartibga solish borasida raqobat siyosatining samaradorligini uch asosiy yo'nalishda o'rganiladi: qonunchilik va antimonopol tartibga solish amaliyoti; iqtisodiy konsentratsiya va uni tartibga solish muammolari; raqobat muhitini rivojlantirish mexanizmlari (Саидов, 2021).

Iqtisodiyotni globalashuv sharoitida har bir tarmoq va sohalar rivojlanishi uchun erkin raqobat muhiti shakllantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni soha va tarmoqlarga jalb qilish uchun, qulay shart-sharoitlar yaratish kabi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda davlatning o'rni muhim hisoblanadi. Mundazam ravishda, sohadagi monopol holatlarni tartibga solish va boshqarish, tabiiy monopoliyalarni

kamaytirish, ularni qayta tarkiblash (restrukturizatsiyalash) ishlarini olib borishda davlat bosh islohotchi vazifasini bajaradi (Саидов, 2022).

Har qanday rivojlan, rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlarda tabiiy monopol tashkilotlari mavjud. Ma'lum bir tovar yoki xizmatga talabning yuqori ekanligi hamda iqtisodiy va texnologik jihatdan raqobat muhitini yaratish imkoni bo'lmagan holatda tabiiy monopoliya vujudga keladi (Саидов, 2021).

Monopol bozorlarga tabaqalashgan yondashuv va tabiiy monopoliya sohalarini ajratish. Har qanday mamlakat iqtisodiyotida bozor mexanizmlari, shu jumladan, bozor orqali narx belgilash tizimi oqilona bo'lmagan sohalar mavjud. Tabiiy monopoliyalar, raqobatni rivojlantirishning iloji bo'lmagan yoki iqtisodiy samarasiz bo'lgan tarmoqlar aynan shunday sohalar qatoriga kiradi. Bunday tarmoqlarga nisbatan davlatning asosiy vazifasi ularning monopolistik faoliyati bilan kelishish hisoblanadi. Shu sababli tabiiy va davlat monopoliyalariga taalluqli bo'lgan xo'jalik sub'ektlariga nisbatan bevosita davlat tartibga solishi qo'llaniladi va ularning xo'jalik faoliyatlarini ishlab chiqarish va investitsiyalar, mahsulot sifati, narxlar (tariflar)ni rejalashtirish asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tartibga solishni hamda bunday tartibga solish xarajatlari bilan bog'liq dotatsiyalar taqdim etish imkoniyatini ko'zda tutadi. (Саидов, 2021).

Dunyo mamlakatlarida tabiiy monopoliyalarning tarmoqlari an'anaviy ravishda elektr energetikasi, temir yo'llar va quvur transporti, gaz va suv ta'minoti va boshqalarni o'z ichiga oladi. Mazkur tabiiy monopoliyalar mamlakat ichida barcha tarmoqlarning ajralmas texnologik elementi sifatida o'zini namoyon etsa, mamlakat tashqi siyosatida qo'shni davlatlar va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilishning asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. (Саидов, 2021).

Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslardan kelib chiqqan holda, tabiiy monopoliyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar mamlakat iqtisodiyoti uchun soliq tushumlari hisobiga vaqtinchalik foyda keltirishi mumkin. Lekin iste'molchilar uchun ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmatlar narxlarining sun'iy oshirilishi sifatning pasayib ketishi va turli xil ko'rinisdagi bozor nuqsonlarining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotning uslubiy asosini tabiiy monopol korxonalarini boshqarishda mavjud bo'lgan muammolariga bag'ishlangan chet ellik olimlarning ishlari, ilmiy nazariy va amaliy qoidalar, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va me'yoriy hujjatlari tashkil etdi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Umuman olganda, «tabiiy monopoliya» tushunchasiga hozirgi iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'rif berilgan: «**Tabiiy monopoliya** – bu, bozorda ma'lum bir tovar (ishlar, xizmat)larga bo'lgan talabning doimiy yoki vaqtinchalik texnologik xususiyatlariga ko'ra, ehtiyojni qondirish borasida raqobat muhitini yaratish imkoni bo'lmagan yoki davlat va jamiyat iqtisodiyotida noqulay vaziyat tug'diruvchi hamda iste'molchi uchun iqtisodiy jihatdan samara keltirmaydigan holatdir».

Tabiiy monopoliyalarning paydo bo'lishi iqtisodiy, texnologik va huquqiy holatlarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin (1-jadval).

Shu bilan bir qatorda, tabiiy monopoliya holati quyidagi yana ikkita sababga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:

1. Tabiiy monopoliyalar sohalarida (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish) yirik ko'lamdagi tejamkorlik imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

2. Umumiy yoki ixtisoslashtirishga bo'lgan moyillik. Bunda, tabiiy monopoliyalar sohalariga kiruvchi tarmoq, korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarga iste'molchilar tomonidan, asosan, ehtiyoj seziladi.

## 1-jadval

## Tabiiy monopoliyalarning yuzaga kelish sabablari

Holati	Mazmuni
<b>Iqtisodiy</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohada katta hajmdagi tejamkorlik imkoniyatlarining yuqori ekanligi;</li> <li>- ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida kapital mablag'ning to'planishi;</li> <li>- iqtisodiy resurslarga egalik qilish imkoniyatining yuqori ekanligi;</li> <li>- sohada tomonlarning o'zaro kelishuvga erishish imkoniyati mavjudligi (sun'iy bozor qoidalarining mavjudligi);</li> <li>- sohada davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy to'siqlarning mavjudligi (davlat bojlari va soliq yukining kattaligi, sohada raqobat muhitini shakllantirishda subsidiyaning yo'qligi).</li> </ul>
<b>Texnologik</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yuqori kapitalning mavjudligi hisobiga zamonaviy texnologiyalarga yakka egalik qilish (fan-texnika taraqqiyoti);</li> <li>- sohada (bozorda) yagona tizimning mavjudligi (sohada doimiy yoki vaqtinchalik raqobat muhitini shakllantirishning imkoni yo'q);</li> <li>- tabiiy muhitning ta'siri hisobiga (konlar, suv omborlari);</li> <li>- ishlab chiqarish korxonasiining geografik noqulay joylashuvi.</li> </ul>
<b>Huquqiy</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sohada qonuniy ustuvorlikning mavjudligi (davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash);</li> <li>- sohada tarkibiy o'zgarishlarning qilinmasligi;</li> <li>- sohalar faoliyatida kompleks tizimining yo'qligi;</li> <li>- tashqi savdoda (eksport, import) yon berish tizimining mavjudligi.</li> </ul>

«O'zbekistonda tabiiy monopoliyalar sohalari, xalqaro amaliyotga qaraganda birmuncha keng. Ularning shakllanishi, o'tish davrida iqtisodiyotni qayta qurish va boshqarish natijasida yuzaga kelgan tuzilmalar bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasining «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi (1997 yil 24 apreldagi N 398-I yangi tahrirda) Qonuniga muvofiq quyidagi sohalardagi tabiiy monopoliyalar sub'ektlarining faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi: neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va ko'mir qazib chiqarish, neft, neft mahsulotlari va gazni quvurlar orqali tashish, elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va uzatish, temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish, umumiy erkin foydalaniladigan elektr va pochta aloqasi xizmatlari, suv quvurlari va kanalizatsiya xizmatlari kiradi». (Энциклопедия (2004).

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, tabiiy monopoliyalarning vujudga kelishiga sabab, iqtisodiy, texnologik va huquqiy jihatdan quyidagicha turkumlash mumkin (2-jadval).

## 2-jadval

## Tabiiy monopoliyalar sohalarining turkumlanishi

Nomi va mazmuni	Turlari
<b>Sof tabiiy monopoliya</b> – texnologik va geografik joylashuviga ko'ra - raqobat muhitini yaratishning imkoni yo'q.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- umumiy erkin foydalaniladigan elektr xizmatlari;</li> <li>- neft, gaz kondensati, tabiiy gaz va ko'mir qazib chiqarish;</li> <li>- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmatlari.</li> </ul>
<b>Legal tabiiy monopoliya</b> – raqobat muhitini yaratish imkoniyati mavjud, lekin iqtisodiy jihatdan samarali emas.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish;</li> <li>- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;</li> <li>- neft, neft mahsulotlari va gazni quvurlar orqali tashish va uzatish.</li> </ul>

Tabiiy monopoliyalar sohalarida texnologik xususiyatlarini inobatga holda ular faoliyatini aniq me'yorlar bilan tartibga solish va boshqarish usullarini qo'llash muhim hisoblanadi. Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solishda quyidagi nazariyalar mavjud: pozitiv, me'yoriy yondashuv, ijtimoiy manfaatlar va o'zlashtirish. Mazkur nazariyalar tarafdorlarini va ilmiy nazariya mazunini 3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solishda pozitiv va me'yoriy yondashuv nazariyasi namoyandalari turlicha yondashadilar.

Pozitiv tartibga solishda – tabiiy monopol tarmoq, tashkilotlar va korxonalar olingan foyda va daromadlarini qayta taqsimlash natijasida o'z manfaatlarini shakllantiradi va bu orqali o'zlarini o'zlari tashqi ta'sirlardan himoya qilishadi. Pozitiv tartibga solish namoyandalari tomonidan ilgari surilgan nazariyada tartibga solish munosabatlariga sof tabiiy monopoliyaga qaragandan ko'ra, birmuncha keng yondashadilar.

## 3-jadval

**Tabiiy monopoliya sohalarini tartibga solish nazariyasi namoyandalari**

No	Nazariya nomlari	Nazariya tarafdorlari	Ilmiy nazariya mazmuni
1	Pozitiv tartibga solish nazariyasi	Keyns ta'limoti (1936 yil)	E.Xansen, S.Harris, J.M.Klarklar tomonidan bu g'oyalar rivojlantirildi va dastlab yangi keynschilik, keyinroq esa ortodoksal keynschilik deb ataldi. Bunda, faoliyatdan olingan foydani qayta taqsimlash orqali bozorda g'olib bo'lganlar va zarar ko'rganlar vujudga keladi. Bu orqali bozorda manfaatdor tomonlar va tashkilotlar yuzaga keladi.
2	Me'yoriy yondashuv nazariyasi	Sherman (1890 yil) va Kleyton (1914 yil Kleyton va federal savdo komissiyasi) Qonuni	Monopol korxonaning maqsadi maksimal foyda olish bo'lsa, u mahsulot narxini xohlagancha oshira olmaydi. Narx oshishi bilan mahsulotga talab kamayib boradi, narx oshishi ma'lum darajaga yetganda umumiy daromad umumiy xarajatni qoplaymaydi. Monopol korxonada qanday narx strategiyasini tutishini bilish uchun daromadning narxga ko'ra talab elastikligi bilan qanday bog'liqligini eslash zarur bo'ladi. Mazkur nazariyada tabiiy monopoliyalar sohalarini har tomonlama tartibga solish orqali muvozanatga erishiladi. Bu nazariya tor doiradagi ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi.
3	Ijtimoiy manfaatlar nazariyasi	Magnuson-Moss qonuni (1975 yil)	Raqobat qonunchiligini buzgan tomon, huquqi buzilgan tomonga yetkazilgan zararni moddiy ko'rinishda qoplab beradi. Bu nazariyadan mazmunan Rossiya, Janubiy Koriya va Xitoy davlatlari amaliyotida foydalaniladi. Sohani tartibga solish orqali ijtimoiy -iqtisodiy farovonlikka erishiladi. Bunda faoliyat to'g'risidagi aniq ma'lumotlarga asoslanib boshqariladi
4	O'zlashtirish nazariyasi	Kanada yondashuvi (1889 yil)	Umumiy huquqning o'zlashtirib olinishi XIX asrda tarixiy sharoitlar taqozosi bilan u yoki bu darajada ispan (Florida) yoki Meksika (Texasda) qonunlarida qo'llanilgan. Tabiiy monopoliyalar sohalarini tartibga solish, tartibga soluvchi organ tomonidan boshqariladi, ular o'zlarining xususiy manfaatlarini himoya qiladilar.

Ijtimoiy manfaatlar nazariyasidan, oxirgi paytlarda, iqtisodchilar tomonidan keng ravishda qo'llab-quvvatlangan holda foydalanilmoqda. Masalan, Uinston (1993) shunday deb yozadi: «Mazkur nazariyaning kuchsizligi shundaki, u tartibga solish va tartibga solinadigan korxonalarning o'zlari mutlaqo to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan, ijtimoiy farovonlikni yuqori darajada oshirish orqali boshqariladi, degan farazga asoslanadi».

«O'zlashtirish nazariyasi – tartibga soluvchi organlarning «asir tushishi» nazariyasi (capture theory) shuni ko'rsatadiki, har qanday usullar tartibga soluvchi organlarga berilishidan qat'i nazar, o'zlarining xususiy manfaatlarini qondirish uchun faollik yo'nalishlarini o'zgartirishlari mumkin» (Стиглер, 1973).

Tabiiy monopoliyalarni ta'riflashdagi ayrim jihatlar alohida e'tiborga loyiq. Agarda bozorda bitta korxonalar yoki tashkilot o'zi ishlab chiqarayotgan mahsuloti yoki ko'rsatayotgan xizmati orqali qolgan raqobatchi korxonalariga qaraganda kam xarjligi sababli ko'proq foyda ko'rayotgan bo'lsa, demak bugungi kunda u o'z faoliyatida zamonaviy texnologiyadan foydalanayotgani uchun tabiiy monopoliya xususiyatini o'zidagi mavjud texnologiya hisobiga namoyon etmoqda.

Zamonaviy texnologiyadan foydalanish hisobiga korxonaning mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari kam bo'lsa, bu nimani anglatadi? Ishlab chiqarish hajmining ortib borishi bilan har bir mahsulot uchun xarajatlar miqdori kamayib borsa, demak, umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmida tejamkorlikka erishiladi. Bundan kelib chiqadi-ki, har qanday korxonalar yoki tashkilot faoliyatida ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik tejamkorlik ko'rsatkichi – bozorda tabiiy monopoliyaning amal qilishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Sohada tabiiy monopoliyalarning yuzaga kelishida texnologik xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etishi natijasida katta tejamkorlik imkoniyati yaratilsa, boshqa holatlarda sohani ixtisoslashtirishga, standartlashtirishga bo'lgan moyillik holati uning iqtisodiy xususiyatlarini yuzaga keltiradi.

«Tabiiy monopoliyalalar xo'jalik yuritishning, iqtisodiy nuqtai nazardan oqilona shakli sifatida tan olinishiga qaramay, monopol holat tufayli kelib chiqadigan quyidagi muammolardan xoli emas: tabiiy monopoliyalalar sohalarida sof raqobat holatidagiga qaraganda, ishlab chiqarishning kam miqdori sharoitida narxlarning yuqori bo'lishi; monopol hokimiyatdan salbiy maqsadlarda foydalanishga sharoit yaratilishi (masalan, kamsitishning har xil turlari). Shu sababli, hatto iqtisodiyotning liberal maktabi ham mazkur bozorlarni tartibga solish shaklidagi aralashuvni an'anaviy ravishda yoqlagan».

### **Xulosa va takliflar.**

Tabiiy monopoliyalalar sohalariga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va boshqarishda davlat organlarining o'рни muhim hisoblanadi. Qolgan tarmoq va sohalariga qaraganda tabiiy monopoliyalalar sohalarini har doim mutaxassis va iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur o'rganib kelinadi hamda shu bilan bir qatorda kuchli tortishuv va munozaralarga sabab bo'ladi. Bu tortishuv va munozaralarga sabab sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- boshqa sohalariga nisbatan tabiiy monopoliyalalar sohalarini tartibga solish tizimini vaqti-vaqti bilan o'zgartirib turishga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Chunki tabiiy monopoliyalalar sohalarini doimo isloh qilib borish, ular faoliyatini nazorat qilib borishda faoliyat reestrini yuritish, ular faoliyatiga tarkibiy o'zgarishlar qilish, ular faoliyatining iqtisodiy va texnologik xususiyatlariga ko'ra chegaraviy me'yorlarni belgilab borish;

- dunyo tajribasida tabiiy monopoliyalalar sohalarini nazorat qilish, tartibga solish va boshqarish amaliyotida o'zgarimas qoidalar mavjud emas. Tabiiy monopoliyalalar sohalariga kiruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan yuzaga keladigan noqulay vaziyatlar iste'molchilarni har doim ham qoniqtirmaydi. Shu sababli, tomonlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

### **Adabiyotlar / Jumepamyra / Reference:**

Joseph A. (1943) Schumpeter, (1883-1950), «Capitalism, Socialism and Democracy» London and New York. ISBN 0-203-26611-0 (Adobe eReader Format) ISBN 0-415-10762-8 (Print Edition).

Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. №11 2021. 45-58 ISSN: 2278-6244 <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>

Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE

DEVELOPMENT ISSN (electronic): 2620 - 6269/ ISSN (printed): 2615 – 4021 Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>

Saidov M.S. Ways of introduction of modern management mechanisms in the electric power sector of Uzbekistan // International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan- 2023. P. 98-110. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843>

Қонун (2009) Ўзбекистон Республикасининг «Табиий монополиялар тўғрисида»ги Қонунига шарҳ. -Т.: Шарқ. 6-бет.

Райзберк Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. (2010) Современный экономический словарь. -6-е изд. перераб. И доп. -М.: ИНФРА-М, -512 с.

Саидов М.С. (2021) Табиий монопол ташкилотларни бошқаришда рақобат муҳитини ривожлантириш // Иқтисодиёт ва таълим / 2021йил 4-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/125/121>

Саидов М.С. (2021) Табиий монопол ташкилотларни бошқаришнинг назарий-услубий жиҳатлари // Иқтисодиёт ва таълим / 2-сон. <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/3104/816>

Саидов М.С. (2021) Табиий монополияларни бошқариш ва тартибга солишнинг хориж тажрибаси // Иқтисодиёт ва таълим / 2021йил, 5-сон. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/209/256>

Саидов М.С. (2021) Ўзбекистонда табиий монопол ташкилотларни бошқариш ва тартибга солишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий жиҳатлари // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11\\_Saidov.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/11_Saidov.pdf)

Саидов М.С. (2022) Глобаллашув шароитида табиий монопол ташкилотлар фаолиятини давлат томонидан тартибга солишнинг институтчионал хусусиятлари // «Таълим – тарбия жараёнига инновацион ёндашувлар, муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика илмий – амалий конференцияси. -Тошкент. 197-203 б. <https://zenodo.org/records/6585036>

Саидов М.С. Табиий монополиялар: амалиётдаги муаммолар, уларни тартибга солиш ва бошқаришда инновацион ёндашувлар // Корпоратив бошқарув тамойилларини жорий этишнинг илғор хориж тажрибаси ва уни Ўзбекистонда қўллаш истиқболлари // Халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Тошкент – "Иқтисодиёт" – 2021 й. 343-349 б.

Саидов М.С. Электр энергетика тармоғини бошқаришдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар // №1. 2023 йил, 183-194 б. [file:///C:/Users/Acer/Downloads/19\\_Saidov+183-194.pdf](file:///C:/Users/Acer/Downloads/19_Saidov+183-194.pdf)

Саидов М.С. Электр энергетика тармоғини тартибга солиш ва бошқаришнинг иқтисодий хусусиятлари // Иқтисодиёт ва таълим // №1. 2023 йил, 288-292 б. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/950/863>

Саидов М.С. Электр энергетикаси соҳасининг бошқарув самарадорлигини ошириш масалалари // Иқтисодиёт ва таълим // №3. 2023 йил, 244-251 б. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1129/1016>

Стиглер Дж. (1973) Теория экономического регулирования Bell journal of Economics, №2. -С. 21.

Уинстон Чирчилль (1993). «Ижтимоий фаровонлик максимизаторлари – қандайдир шахсий рағбатларсиз мутлақо ижтимоий фаровонликни ўстиришга ишловчи шахслардир». 126-бет.

Ўрмонов Н.Т. (2019) Монополияга қарши бошқарувнинг институтчионал асослари. Иқтисодиёт. -Т.: 115- бет.

Ўрмонов Н.Т., Расулов Н.М., Исмоилов А.Р. (2019) Монополияга қарши бошқарув назарияси. Иқтисодиёт. Т.: 9-бет.

Фридман М. (1955) Либерализм. Журнал «Collier's Year Book», - 56-бет.

Энциклопедия (2004) Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Тошкент. 6-том, 8-том. 77-бет.